XALQ DEPUTATLARI ANDIJON TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 11-mart VII-3-43-1-16-K/25 Andijon tumani

O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi ekspert komissiyasining Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarning qonun hujjatlari talablariga muvofiqligi haqidagi 2024-yil 16-maydagi 05-19-01-1587-sonli xulosasini ko‘rib chiqib, O‘zbekiston Respublikasining 2011-yil 12-oktyabrdagi “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi 303-son Qonuni va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktyabrdagi “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respulikasi Qonuniga muvofiq geografik obyektlarning nomlari sohasidagi ishlarni tartibga solish chora-tadbirlari haqida”gi 295-sonli qarori hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6-,24-moddalariga asosan xalq deputatlari Andijon tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Andijon tuman hokimligi “Geografik obyektlarni nomlash qayta nomlash masalalari bo’yicha tuman komissiyasi”ning taklifi hamda O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi ekspert komissiyasining Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarning qonun hujjatlari talablariga muvofiqligi haqidagi 2024-yil16-maydagi 05-19-01-1587-sonli xulosasi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. “Geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarning qonun hujjatlariga muvofiqligi haqida”gi ekspert xulosasi bilan qonun hujjatlariga muvofiq deb topilgan tumandagi 28 ta qabriston nomlari ro‘yxati 1-ilovaga asosan tasdiqlansin.

3.Tuman qurilish bo‘limi boshlig‘i (O‘.Mamtaliyev), Davlat kadastrlar palatasi tuman filiali boshlig‘i (N.Baxromov), tuman soliq inspektsiyasi boshlig‘i (D.Axmadaliyev), tuman statistika bo‘limi boshlig‘i (A.Jo‘rayev), tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i (A.Mamajonov), tuman davlat xizmatlari markazi rahbari (I.Umarov) va boshqa tegishli mutasaddi davlat organlari bilan birgalikda Qonun hujjatlariga muvofiq deb topilgan ziyoratgoh, qabriston, istirohat bog‘lari nomlari bo‘yicha ish yuritish hujjatlariga tegishli o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish bilan bo‘liq barcha tadbirlarni amalga oshirish vazifasi yuklatilsin.

4. Andijon tuman hokimining o‘rinbosari (D.Abdurashitov), tuman obodonlashtirish boshqarmasi (X.Taylaqov), tuman bosh imom hatibi S.Matg‘oziyev), O‘zbekiston mahallalar uyushmasi tuman bo‘limi (I.Tojiboyev) larga: - qonun hujjatlariga muvofiq deb topilgan qabriston nomlarini aholi o‘rtasida keng targ‘ib qilish, belgilangan tartibda zamonaviy ko‘rinishdagi O‘zDST texnik shartlariga javob beradigan peshlavhalar yozib o‘rnatish ishlarini tashkil etsinlar.

5. Belgilansinki, geografik obyektlarning nomlari sohasidagi ishlarni moliyalashtirish mahalliy byudjet mablag’lari va qonun hujjatlarida ta’qiqlanmagan boshqa manbaalar hisobidan amalga oshiriladi.

6. Andijon tuman Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha tuman komissiyasi (M.Abduraxmonov)ga 10 kun muddatda:

- Ushbu qaror nusxasini geografik obyektlarga nom berish va ularning nomlarini o‘zgartirish masalalari bo‘yicha viloyat komissiyasiga yuborish;
- O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligiga Geografik obyektlar ziyoratgoh, qabriston, istirohat bog‘lariga tavsiya etilgan nomlarni davlat reestriga kiritish uchun tegishli hujjatlar taqdim etish vazifasi yuklatilsin.

7. Tuman hokimligi matbuot xizmati va “Andijon tongi” gazetasiga mazkur qarorni hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirish hamda “Andijon tongi” gazetasida e’lon qilsin.

8. Ushbu qarorning ijro etilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, turizm, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha hamda “Ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat, sport va ijtimoiy himoya masalalari” bo‘yicha doimiy komissiyalari va tuman hokimi o‘rinbosari I.Muqimjonov zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi YULDASHEV BOBIRBEK BAXODIROVICH

Xalq deputatlari Andijon tumani
Kengashining
2025-yil 11-martdagi
VII-3-43-1-16-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Andijon viloyati Andijon tumani “Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari boʻyicha” komissiyasining davlat ekspertizasidan oʻtkazilishi lozim boʻlgan obyekt nomlari toʻgʼrisida

MA’LUMOT

T/r	Geografik obyektning turi	Joylashgan oʻrni	Geografik obyektning amaldagi nomi	Viloyat komissi-yasi tomonidan berilgan takliflar	Izoh
1	2	3	4	5	6
1.	Qabriston	Qo’shchinor MFY	Nomsiz	Yangi Qo’shqayrag’och	Mahalladagi Qo’shqayrag’och ko’chasida joylashganligi uchun ushbu nom berilgan.
2.	Qabriston	Qo’shchinor MFY	Nomsiz	Eski Qo’shqayrag’och	Mahalladagi ko’cha nomiga qo’yilgan.
3.	Qabriston	Qo’shchinor MFY	Nomsiz	Yangi beshkaram	Mahalladagi ko’cha nomiga qo’yilgan.
4.	Qabriston	Qo’shchinor MFY	Nomsiz	Eski beshkaram	Mahalladagi ko’cha nomiga qo’yilgan
5.	Qabriston	Intilish MFY	Nomsiz	Ko’kto’nliota	IX-XX asrlarda yashagan, bronxit, ko’okyo’tal kasallikalrini shifobaxsh giyohlar bilan davolagan inson nomiga tarixdan shu nom bilan qolgan. Qabriston tuprog’idan hozirgacha ushbu kasallik bilan og’rigan bemorlar foydalanib kelayotganligi sababli qabriston nomi “Ko’kto’nli ota” nomi bilan ataladi.
6.	Qabriston	Teraktagi MFY	Nomsiz	Katta Teraktagi	Mahalla nomi bilan atalgan
7.	Qabriston	Ravot MFY	Nomsiz	Ravot	Mahalla nomi bilan atalgan
8.	Qabriston	Tadbirkor MFY	Nomsiz	Saidjalol	Atoqli va mahallada oʻz obroʻ-e’toboriga ega bo’lgan shaxs nomiga qoʻyilgan.
9.	Qabriston	Guliston MFY	Nomsiz	Buvasariqota	Atoqli va mahallada oʻz obroʻ-e’toboriga ega bo’lgan shaxs nomiga qoʻyilgan.

10.	Qabriston	Otchopar MFY	Nomsiz	Yuqori Otchopar	Mahalla nomi bilan atalgan
11.	Qabriston	Ittifoq MFY	Nomsiz	Sultonobod	Sultonlar obod qilgan maskan degan ma’noda shu nom bilan atalgan.
12.	Qabriston	Ittifoq MFY	Nomsiz	Yuqori Shahidmozor	Ushbu qabristonga qo’yilgan shahidlar nomini abadiylashtirish maqsadida nomlangan.
13.	Qabriston	Ittifoq MFY	Nomsiz	Shodmonbuva	Atoqli va mahallada o‘z obro‘-e’toboriga ega bo’lgan shaxs nomiga qo‘yilgan.
14.	Qabriston	Daryobo’yi	Nomsiz	Rustamota	Atoqli va mahallada o‘z obro‘-e’toboriga ega bo’lgan shaxs nomiga qo‘yilgan.
15.	Qabriston	Yangiyo’l MFY	Nomsiz	Yangi Ko’kto’nliota	Atoqli va mahallada o‘z obro‘-e’toboriga ega bo’lgan shaxs nomiga qo‘yilgan.
16.	Qabriston	Tolmozor MFY	Nomsiz	O’rmonjonota	Atoqli va mahallada o‘z obro‘-e’toboriga ega bo’lgan shaxs nomiga qo‘yilgan.
17.	Qabriston	Tolmozor MFY	Nomsiz	Yangi Shahidtepa	Mahalladagi ko’cha nomi bilan atalgan.
18.	Qabriston	Tolmozor MFY	Nomsiz	Kichik Tolmozor	Mahalla nomi bilan atalgan.
19.	Qabriston	Yuksalish MFY	Nomsiz	Shiraxonaziz	Atoqli va mahallada o‘z obro‘-e’toboriga ega bo’lgan shaxs nomiga qo‘yilgan.
20.	Qabriston	Aylanpa MFY	Nomsiz	Aylanpa	Mahalla nomi bilan atalgan.
21.	Qabriston	Xo’ja MFY	Nomsiz	Tojik	Mahallaning eski nomi bilan atalgan.
22.	Qabriston	Xo’ja MFY	Nomsiz	Sodiq	Atoqli va mahallada o‘z obro‘-e’toboriga ega bo’lgan shaxs nomiga qo‘yilgan.
23.	Qabriston	Istiqlol MFY	Nomsiz	Hojatbarot-Valiy	Atoqli va mahallada o‘z obro‘-e’toboriga ega bo’lgan shaxs nomiga qo‘yilgan.
24.	Qabriston	Jannatmonand MFY	Nomsiz	Yangi Jaharmasjid	Mahallaning eski nomi bilan atalgan.
25.	Qabriston	Jannatmonand MFY	Nomsiz	Eski Jaharmasjid (yopilgan)	Mahallaning eski nomi bilan atalgan.
26.	Qabriston	Jannatmonand MFY	Nomsiz	Bahrin	Turkiylashgan mo’g’ul qabilalari ham dafn etilgan joy bo’lganligi bois Bahrin deb atalgan.
27.	Qabriston	Yuksalish MFY	Nomsiz	Tosqovulota	Atoqli va mahallada o‘z obro‘-e’toboriga ega bo’lgan shaxs nomiga qo‘yilgan.
28.	Qabriston	Yangiyo’l MFY	Nomsiz	Hasanota	Atoqli va mahallada o‘z obro‘-e’toboriga ega bo’lgan shaxs nomiga qo‘yilgan.